Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Ro'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilox Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	



Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Аброр Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamliligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Davronov Saxobiddin Faxriddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning afzalliklari va tahlili hamda rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, tadbirkorlik asoslari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, biznes, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, yakka tartibdagi tadbirkorlik.

Abstract: This article will discuss the advantages and analysis of financial support for business entities and improving development prospects. The existing problems in the prospects for the development of financial support for business entities in the Republic of Uzbekistan, as well as the author's approaches and proposals for their elimination, are also presented.

Key words: entrepreneurship, small business, fundamentals of entrepreneurship, financial support, business, production, service, individual entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о преимуществах и анализе финансовой поддержки субъектов предпринимательства и улучшении перспектив развития. Также представлены существующие проблемы в перспективах развития финансовой поддержки субъектов предпринимательства в Республике Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, основы предпринимательства, финансовая поддержка, бизнес, производство, услуга, индивидуальное предпринимательство.

KIRISH

Bugungi kunda tadbirkor nafaqat o'z faoliyati orqali foyda orttirish, balki davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlardan foydalangan holda mamlakatdagi ijtimoiy masalalar, xususan, aholi bandligini ta'minlash, milliy daromadni o'stirish va xalqning farovonligi uchun xizmat qilish kabilarda ham katta rol o'ynaydi. O'z navbatida, har bir tadbirkorlik faoliyati muayyan bir mintaqada: mamlakat, viloyat, shahar yoki qishloq hududida tashkil etiladi. Tadbirkorlik faoliyatining samarali asosi bo'gan, ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish mumkinligiga qaratilgan jihatlar o'z ilmiy yechimini topmaganligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning ma'ruzalarida "belgilangan jamiyat rivojlantirishining tanlangan yo'nalishiga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki tamoyili sifatida biz sifat qayta tuzishlarini tayyorlaydigan, doimiy miqdor o'zgarishlar jarayoni o'z ichiga oladigan strategik rivojlanish yo'lini tanlab oldik. Tamoyilning mohiyati tezkor iqtisodiy masalalarini hal qilishdan milliy vazifalarni asoslashga o'tish, aniq ketma-ketlikni davlat va tadbirkorlik subyektlari xususiy manfaatlari muvozanatini ta'minlashni nazarda tutadi"^[2].

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik muhiti, ishchanlik muhiti va ishbilarmonlik muhiti bir xil mazmunda qo'llanilmoqda.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlikning rivojlanishida nazariy yondashuvlarni M.Boltaboyev rahbarligida bir qator mualliflar klassik olimlarning Adam Smit, Richard Kantilon, Jon Batist Sey, Jon Beys Klark, Y.Shumpeter va G.Pinsho fikrlarini batafsil yoritganlar^[3]. Demak, XVIII asrda iqtisodchi Richard Kantilon (1680-1734) "Umumiy savdo tabiati yuzasidan insho" (Essay on the Nature of Trade in General) nomli kitobida qo'llagan edi^[4]. Richard Kantilonning



fikricha, tadbirkor – risk (xavf-xatar) sharoitida faoliyat yurituvchishaxsn. Shunga ko'ra tadbirkor yer va mehnat omiliga iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boyliklarsifatida qaragan [6].

So'ng, iqtisodchisi Jon Batist Sey (1767-1832) "Siyosiy iqtisod traktati" kitobida tadbirkorlik faoliyatidagi ishlab chiqarish omillarini ko'rsatib o'tgan, unga yer, kapital va mehnat kiritilgan [6]. Jon Batist Seyning ta'kidlashicha, tadbirkor daromadi mehnat, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mahsulotni sotish jarayonida paydo bo'ladiganfoydali inoyatdir. Tadbirkor ma'lum bir riskka borib, muayyan mahsulotni ishlab chiqarishi natijasiga bunga erishadi.

Ingliz iqtisodchi olimlari Adam Smit (1723-1790) va David Rikardo (1772-1823) tomonidan olg'a surilgan asosiy fikr bu iqtisodiyotni o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizm sifatida ta'kidlanishidir. Iqtisodiyotni o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmida ijodiy tadbirkorlikka joy ajratilmagan. Mehnat barcha tadbirkorlikning asosidir – keyinchalik klassik siyosiy iqtisod deb nomlangan ta'limotni yaratgan A.Smitning "Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish" asaridan kelib chiqadigan xulosalardan biri. Mehnat barcha yaxshiliklarning yagona manbai, deb ta'kidlaydi A.Smit. Bu degani, mahsulot ishlab chiqarishga ma'lum miqdordagi mehnatni sarflagan shaxs ushbu mahsulotni yoki o'zi sotib olishi mumkin bo'lgan boshqa narsalarni erkin tasarruf etishning to'liq va ajralmas huquqiga ega bo'ladi. Biroq, ushbu imtiyozlar turli yo'llar bilan yo'q qilinishi mumkin. Tadbirkor ularni butunlay o'zining ehtiyojlari va qulayliklari uchun ishlatishi mumkin, shunda avvalgi mehnat tomonidan yaratilgan barcha qiymatlar yo'qoladi. Yoki yaratilgan ehtiyojning bir qismini zarur ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatib, yana bir qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga, tuproqni yaxshilashga, asbob-uskunalarni yaxshilashga, bino qurish yoki texnikani sotib olishga sarflashi mumkin. Bunda yaratilgan qiymat saqlanib qoladi, boylikka aylanadi, ya'ni kapitallashtiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning afzalliklari hamda tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik bu tavakkalchilik demakdir. Tadbirkorlik faoliyatidagi xavf-xatarlarni xolis baholash uchun bo'lajak tadbirkor o'zining boshlang'ich mablag'lari hisobiga biznesni qurishi juda ham muhim hisoblanadi. O'z mablag'lari yetarli bo'lmaganda esa, kredit va subsidiyalar hamda mikromoliya tashkilotlari tadbirkorga yordamga keladi.

Shu maqsadda mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, mikro-moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, aholining keng qatlamlari hududlarda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish, mikromoliya tashkilotlari uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar, shu jumladan depozit jalb qilish imkoniyatini yaratish, mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o'rtasidagi "zanjir"ni mustahkamlash maqsadida tadbirkorlar uchun 2023-yil 10-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-364 sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning 2024–2026-yillarda quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga qaratilgan mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish dasturini amalga oshirish to'g'risidagi quyidagi takliflar belgilab berildi:

- mikromoliyalash bozori hajmini kamida 5 barobarga oshirish;
- mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliondan ortiq tadbirkorlik subyektlarini qamrab olish;
- mikromoliya tashkilotlari resurs bazasida jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan mablag'lar miqdorini 2 barobarga oshirish;
- mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali rasmiy daromadga ega bo'lmagan 500 mingga yaqin shaxslarni o'zini o'zi band qilish va biznesni rivojlantirishga ko'maklashish [1].

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

- mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 mln so'mdan 100 mln so'mgacha oshiriladi;
- nobank kredit tashkilotlari aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladi;
- mikromoliya tashkilotlariga norezidentlardan xorijiy valyutada qarz mablag'larini jalb qilish hamda yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ruxsat beriladi;



- jismoniy shaxs bo'lgan ishtirokchilardan (aksiyadorlardan) ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilgan hissa summasining yoki ularning egaligidagi aksiyalar nominal qiymatining ikki baravaridan oshmaydigan miqdorda qarz mablag'larini jalb etishga ruxsat beriladi;
- mikromoliya tashkilotlari tegishli litsenziya olgan holda to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi;
- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan nobank kredit tashkilotining ustav kapitalidagi ulushga egalik qilish uchun Markaziy bank dastlabki ruxsatnomasini olish talabi qonunchilikda belgilangan 10 foizlik ulushni 20 foizga oshirish orqali yumshatiladi. Bunda, olinayotgan ulush miqdori 10 foizdan 20 foizgacha bo'lganda Markaziy bankni xabardor qilish tartibi joriy etiladi;
- mikromoliya tashkilotlariga tijorat banklaridan kredit resurslari jalb etilganda yoki tadbirkorlik subyektlariga mikromoliya tashkilotlaridan mikrokredit olinganda "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligini berish imkoniyati yaratiladi;
- tijorat banklariga mikromoliya tashkilotlariga kredit ajratishda ularning ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlari bo'yicha talab qilib olish huquqini garovga olish huquqi berilishi belgilab berildi.

Shuningdek, tadbirkorlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi PQ-3225-sonli qaroriga muvofiq "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Jamg'arma tashkil etildi.

Jamg'arma tashkil etilgandan buyon tadbirkorlarga jami 49,3 mingta loyihaga ajratilgan 77,5 trln. so'mlik kreditlar uchun 17,3 trln. so'mlik moliyaviy yordam (10,5 trln. so'mlik kafillik, 6,8 trln. so'mlik kompensatsiya) ko'rsatilgan. Natijada 386,3 ming ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishilgan.


1-jadval: Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy yordam asosida ajratilgan kreditlar to'g'risida ma'lumot (2018-2023-yil 1-iyul holatiga)

Sohalar	Jami				
	Soni		Summasi		Yordam (% da)
	Yordam	Ish o'rni	Moliyaviy yordam	Kredit	
Jami	49 256	386 304	17 262 061	77 536 783	100%
Qishloq xo'jaligi	29 450	169 305	9 186 894	35 556 292	53,2%
Asalarichilik	123	343	6 690	29 371	0,1%
Baliqchilik	1 778	7 037	494 678	1 801 646	5,4%
Intensiv bog'	31	246	7 896	28 530	0,1%
Ipakchilik	84	8 807	83 414	527 749	0,9%
Issiqxona	3 813	39 833	3 603 691	12 596 422	39,2%
Qishloq xo'jaligi va meva-sabzavot yetishtirish	9 410	43 252	1 390 497	5 229 668	15,1%
Parrandachilik	1 119	13 059	715 880	2 861 235	7,8%

Sohalar kesimida oladigan bo'lsak, Jamg'arma tomonidan eng ko'p tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy yordam sifatida qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'lib jami 29,4 ming ta loyihaga ajratilgan 35,5 trln. so'mlik kreditlar uchun 9,2 trln. so'mlik moliyaviy yordam (4,9 trln so'mlik kafillik, 4,3 trln. so'mlik kompensatsiya) ko'rsatilgan. Natijada 169,3 ming ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RBQ-813-son Qonunida Jamg'armaga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 900,0 mlrd. so'm transfert ajratilgan. 2023 yil 1 iyul holati bo'yicha tadbirkorlarga jami 416 ta loyihaga ajratilgan 500,0 mlrd. so'mlik kreditlar uchun 181,5 mlrd. so'mlik moliyaviy yordami (173,0 mlrd. so'mlik kafillik va 8,5 mlrd. so'mlik kompensatsiya) ko'rsatilgan. (1-jadvalga qarang)

Tadbirkorlik subyektlarining maqomini baholashning yagona mezon va ularning faoliyatining barcha yo'nalishlari va sohalarida oldin olish tadbirlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur. Natijada, davlat zaif tomonlarini bartaraf etish uchun zarur mablag'larni tejaydi, ularning ko'pchiligi kerakli bo'lmagan (tavakalchilik guruhiga ko'ra) tadqiq qilishga ko'p sonli yondashuvlarni takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Bundan tashqari, zarar ko'rib ishlaydigan subyektlarning soni va ularni qo'llab-quvvatlash xarajatlari kamayadi.



1-rasm: Tadbirkorlik subʼyektlari faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash shakllari¹

Yuqorida keltirilgan 1-rasmga koʻra tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashni tartibga solishning shakllaridan tadbirkorlik subyektlarining oʻziga xos shartlari va ehtiyojlariga qarab foydalanish mumkin. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy taʼminlash turli shakllarda tartibga solinishi mumkin. Ulardan baʼzilari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Tadbirkorlar oʻzlarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun banklardan yoki boshqa moliya institutlaridan kredit olishlari mumkin.
2. Tadbirkorlik subyektlari oʻz bizneslarini rivojlantirish uchun xususiy investorlar, venchur fondlari yoki davlat investitsiya fondlaridan investitsiyalarni jalb qilishlari mumkin.
3. Davlat tadbirkorlarga tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini ragʻbatlantirish yoki iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish uchun maxsus grantlar va subsidiyalari berishi mumkin.
4. Davlat tadbirkorlarga oʻz faoliyatini ragʻbatlantirish uchun soliq imtiyozlari yoki muayyan soliqlardan ozod qilishi mumkin.
5. Tadbirkorlar xalqaro valyuta jamgʻarmasi yoki Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlardan moliyaviy yordam olishlari mumkin.

Shuningdek, tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati biznesni boshlash, oʻsishi va muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur boʻlgan turli xil tushunchalar, amaliyotlar va koʻnikmalarni qamrab oladi. Ular yangi gʻoyalarni yaratish, biznes-rejalarni ishlab chiqish, resurslarni boshqarish, marketing, moliya, mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish, imkoniyatlar va xavflarni tan olish kabi elementlarga asoslanadi. Tadbirkorlikning mazmuni, shuningdek, innovatsiyalar, insonlarning hayot sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali jamiyat uchun qiymat yaratish gʻoyalarini oʻz ichiga oladi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimlar orqali amalga oshiriladi, ular (institutsonal tipologik xususiyatlari boʻyicha) tovar-pul va iyerarxik mexanizmlarga boʻlinadi. Birinchi mexanizm (tovar-pul) tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asoslangan bozor va raqobatbardosh uchun yaratilgan sharoitlar orqali taʼsir qiladi. Ularning faoliyatiga davlat-huquqiy taʼsirining turli shakllari, usullari va vositalari qoʻllaniladi. Haqiqiy iqtisodiyotda bu mexanizmlar bir-birlari bilan oʻzaro taʼsir oʻtkazib, bir-birini toʻldiradi.

Biroq, bu nuqta nafaqat bu (bu haqiqat muhim ahamiyatga ega boʻlsa da), davlat bozor mexanizmlari bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solish boʻyicha iyerarxik mexanizmlardan ham foydalanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashni tartibga solish mexanizmlar tovar-pul va iyerarxik usullari boʻlishdan boshqa iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda bevosita hamda bilvosita tartibga solish tushunchasi keng tarqalgan. Shunday qilib, bir tomondan bevosita va maʼmuriy usullar bilan, bir tomondan, bilvosita hamda iqtisodiy usullar oʻrtasida teng belgisi bor edi. Ayni paytda, ularning paydo boʻlishining sabablarini oʻrganish juda muhimdir.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash har qanday davlat uchun eng muhim faoliyat turlaridan biridir. Buning ikkita asosiy sababi bor – iqtisodiyotning

1 Muallif ishlanmasi.



nodavlat sektorida yangi ish o'rinlarini yaratish va soliq to'lash orqali davlat budjetining daromad moddalarini to'ldirish. Shu tufayli davlat tadbirkorlik faoliyatini faol ravishda ragbatlantiradi, birinchi navbatda budjetdan biznesning turli sohalariga grantlar va subsidiyalar ajratish orqali.

Birinchidan, tadbirkor-bu tavakkal qilishga tayyor bo'lgan, shuningdek o'z biznesini boshlash uchun malum bir boshlang'ich kapitalga ega bo'lgan ijodiy, yuqori darajada rivojlangan shaxs. Muvaffaqiyatli biznes g'oyasi va biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish holatida siz o'zingizni sevilmaydigan ishlarga sayohatlar shaklida kundalik tartibdan xalos qilishingiz mumkin. Biroq, aksariyat odamlar uchun bu juda qiyin va qiyin qadam, chunki u raqobatchilar yoki kutilmagan xarajatlar shaklida ham, dastlab bashorat qilinmagan bozor omillari ko'rinishida ham ko'plab xavf-xatarlarga duch keladi.

Shunga qaramay, sinov va xatolar orqali odamlar o'zlarining farovonligiga erishish va yangi mahsulot hamda xizmatlar ko'rinishida jamoat farovonligini yaratish orqali mo'ljallangan maqsadga intilishadi. Muvaffaqiyatsizliklar soni ko'p bo'lishi mumkin, ammo ko'pincha tadbirkorlikda nafaqat yakuniy maqsadga erishish, balki fikrli odamlar jamoasi yordamida g'oyani hayotga aylantirish jarayoni ham muhimdir.

XULOSA

Tadbirkorlik faoliyati yoki tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarish omillari orasida alohida o'rin tutadi, chunki ular iqtisodiy resurslarni birlashtirishga qaratilgan. Shubhasiz, tadbirkorlik faoliyatining omil daromadi foyda hisoblanadi. Faqat ishlab chiqarish omili sifatida tadbirkorlik qobiliyatidan foydalangan holda va boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning maqbul holatini topgandagina foyda olish mumkin.

Tadbirkorlik qobiliyatlarini amalga oshirish biznes jarayonini tashkil etishning samarali usullaridan foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xatarlarni o'z vaqtida minimallashtirishda namoyon bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kafolat va kompensatsiyalar, tijorat banklariga esa quyidagi yo'nalishdagi loyihalar bo'yicha kredit ajratish uchun resurslar taqdim etadi:

- qishloq xo'jaligi sohasida, birinchi navbatda, energiya tejamkorligi yuqori zamonaviy issiqxonalar qurish, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, quyonchilik, asalarichilik, uzumchilik va bog'dorchilikni, jumladan, intensiv bog'larni rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, jumladan, intensiv bog'larda yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash sohasida – ushbu mahsulotlarni saqlash bo'yicha infratuzilma va transportirovka qilish bilan bog'liq logistika markazlarini tashkil etish;
- ko'p qavatli uylar atrofidagi umumiy foydalanishga mo'ljallangan joylarni xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruv kompaniyalari tomonidan obodonlashtirish va ta'mirlash belgilab berilgan.

Hozirgi raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga doimo yangi innovatsiyalarni qo'llamay, yirik korxonalar bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'ymay bozorga yangi mahsulot yoki texnologiyalarni kiritishlari mushkuldir. Bunda tadbirkorlik faoliyatiga innovatsion menejment usul va texnologiyalarini tatbiq etish, amaldagi boshqaruv usullarini muntazam ravishda takomillashtirib borish tadbirkorlik faoliyatining kelgusidagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Shunday qilib, tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining mazmuni yangi g'oyalarni yaratishdan tortib biznesni boshqarish va innovatsiyalarni rivojlantirishgacha bo'lgan ko'plab jihatlarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-364 sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Boltaboyev M.R va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. T: Fan. 2011-y.
4. Nevin, Seamus. "Richard Cantillon: The Father of Economics". *HistoryIreland (JSTOR)* 21 (2): 20–23.
5. Кантильон Р. Эссе о природе торговли в общем плане // *Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков.* – М.: Мысль, 2004. Т. 1.
6. Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. Бастиа Ф. Экономические софизмы. Экономические гармонии. / Сост., вступ. ст. и коммент. М. К. Бункиной и А. М. Семенова. – М.: Дело, 2000.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil **IQTISODIYOT** va **TARAQQIYOT**

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.